

Olahakka



Hakka – aqlli, chaqqon va juda qiziquvchan qush. Uning libosi go‘yo rassom tomonidan chizilgandek. **Oq-qora rangli** go‘zal va yorqin **patlari** sababli u tezda ko‘zga tashlanadi.

Hakkaning boshi, orqasi va uzun dumi **qora** hamda **yaltiroq**. Quyosh nurida, bu patlar **ko‘k**, **yashil** va hatto **binafsha ranglarda** tovlanadi. Ko‘kragi va yon tomonlari esa **qordek oppoq**, shuning uchun ham bu qushni **olahakka** deb atashadi.

Hakkaning tumshug‘i va oyoqlari **qora** hamda **baquvvat** bo‘lib, ular yordamida u oziqa topadi va epchillik bilan harakatlanadi. Uzun dumi esa havoda oson yo‘nalish olgan holda parvoz qilishga yordam beradi. Shuningdek, hakka barcha yaltiroq narsalarni juda yaxshi ko‘radi va ko‘pincha yorqin buyumlarga e‘tibor qaratadi.



Hakka rasmini bosqichma-bosqich chizing. Daraxt shoxlariga barg bandlarini chizing, so‘ng kuz ranglarida barg izlarini qo‘shing.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Oddiy qalamda **hakkaning konturi**: boshi, tanasi, qanoti va uzun dumini chizing.
2. Hakka qo‘nib turgan **shox rasmini** chizing. Shox haqiqiydek, biroz egilgan bo‘lishi mumkin.
3. **Fonni bo‘yang**. Keng mo‘yqalamdan foydalaning va fon jonli chiqishi uchun bo‘yoqni erkin surtishga harakat qiling.
4. **Hakkani bo‘yang**. Qora bo‘yoq bilan boshi, orqasi, dumi va qanotining bir qismini, oq bo‘yoq bilan esa ko‘z konturini, qorni va qanotining bir qismini bo‘yang. Patlariga biroz ko‘k yoki moviy rang qo‘shing – bu haqiqiy patlardek jilo beradi.
5. **Bir nechta barglar qo‘shing**. Daraxtlarning haqiqiy barglaridan **shtamp** sifatida foydalanishingiz mumkin.

1



2



3



4



5

